



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI

**Adilova Zohida
Ikromjonovna**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank ishi kafedrası katta o'qituvchisi
E-mail: adilova.zohida1989@gmail.com
ORCID: 0009-0008-2589-76*

Jahon moliya bozorlarida kechayotgan globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlash, ayniqsa, ularning to'lov qobiliyatini mustahkamlash masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biriga aylantirmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank mijozlarining moliyaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida amalga oshirishga bo'lgan talabi ortib bormoqda. Bu esa tijorat banklaridan nafaqat yetarli kapital va likvid aktivlarga ega bo'lishni, balki to'lov majburiyatlarini tezkor, xavfsiz va uzluksiz bajarish imkonini beruvchi zamonaviy risk-menejment tizimini shakllantirishni ham talab etadi.

So'nggi yillarda xalqaro bank amaliyotida yuz bergan moliyaviy beqarorlik holatlari tijorat banklari to'lov qobiliyatining zaiflashuvi butun moliyaviy tizimga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yaqqol namoyon etdi. Jumladan, "2023-yil mart oyida Silicon Valley Bank bilan bog'liq holatda mijozlar tomonidan bir kun ichida 42 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'larni qaytarib olish talabi yuzaga kelgan. Bank ushbu likvidlik ehtiyojini qoplash maqsadida 21 milliard AQSh dollari miqdoridagi AQSh g'aznachilik obligatsiyalarini sotishga majbur bo'lgan. Mazkur holat banklarda likvidlik, ishonch, aktivlar sifati va to'lov qobiliyati o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurroq tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi"¹.

O'zbekiston bank tizimida ham raqamli iqtisodiyotga moslashish jarayoni jadallashib, bank aktivlari, kreditlar, kapital va depozitlar hajmida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Xususan, "2021-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti 668 038 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 1 454 573,9 mlrd so'mga yetgan. Shu davrda bank tizimi aktivlari 366 121 mlrd so'mdan 769 330,4 mlrd so'mgacha, kreditlar hajmi esa 276 975 mlrd so'mdan 533 121,2 mlrd so'mgacha ko'paygan. Ushbu ko'rsatkichlar bank tizimining iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki kengayotganini ko'rsatadi"².

1-jadval

¹ Covi G., Škrinjarić T. *Measuring the stability of the banking system: capital and liquidity at risk with solvency-liquidity interactions*. Staff Working Paper No. 1,140. Bank of England, 2025.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

O‘zbekiston bank tizimining to‘lov qobiliyatiga ta’sir etuvchi asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
YaIM, mlrd so‘m	668 038	820 537	995 573	1 204 485,4	1 454 573,9
Bank tizimi aktivlari, mlrd so‘m	366 121	444 922	556 746	652 157,1	769 330,4
Aktivlarning YaIMga nisbati, %	54,8	54,2	55,9	54,1	52,9
Kreditlar, mlrd so‘m	276 975	326 386	390 049	471 406	533 121,2
Kreditlarning YaIMga nisbati, %	41,5	39,8	39,2	39,5	36,7
Depozitlar, mlrd so‘m	114 747	156 190	216 738	241 687	308 692,3
Depozitlarning YaIMga nisbati, %	17,2	19,0	21,8	20,3	21,2
Yuqori likvidli aktivlar, mlrd so‘m	75 992	104 473	125 105	134 265	152 570
Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati, %	17,7	19,4	18,1	21,2	23,4
Likvidlilikni qoplash me‘yori — LCR, %	189,6	211,6	169,4	185,6	195,2
Sof barqaror moliyalashtirish me‘yori — NSFR, %	115,4	115,6	121,2	119,6	112,2
Lahzali likvidlilik me‘yori, %	99,3	110,1	85,3	90,1	105,1

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2021–2025-yillarda O‘zbekiston bank tizimida asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlar hajm jihatidan sezilarli darajada oshgan. Jumladan, bank tizimi aktivlari 2,1 barobarga, kreditlar hajmi qariyb 1,9 barobarga, depozitlar hajmi esa 2,7 barobarga ko‘paygan. Bu bank tizimining resurs bazasi kengayib borayotganini va moliyaviy vositachilik faoliyati faollashayotganini ko‘rsatadi.

Biroq ayrim nisbiy ko‘rsatkichlar tahlili tijorat banklari to‘lov qobiliyatini ta’minlash borasida muayyan muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, bank tizimi aktivlarining YaIMga nisbati 2021-yildagi 54,8 foizdan 2025-yilda 52,9 foizgacha pasaygan. Kreditlarning YaIMga nisbati esa 41,5 foizdan 36,7 foizgacha kamaygan. Bu holat banklar aktivlari va kredit qo‘yilmalarining iqtisodiyot o‘shish sur‘atlariga nisbatan yetarlicha yuqori darajada rivojlanmayotganini anglatadi. Shu sababli banklarning real sektorni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, resurs bazasini barqarorlashtirish va to‘lov qobiliyatini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari to‘lov qobiliyatini ta’minlashda yuqori likvidli aktivlar hajmi muhim o‘rin tutadi. “2021–2025-yillar davomida O‘zbekiston bank tizimida yuqori likvidli aktivlar hajmi 75 992 mlrd so‘mdan 152 570 mlrd so‘mgacha oshgan. Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati esa 17,7 foizdan 23,4 foizgacha ko‘tarilgan. Shuningdek, 2025-yilda likvidlilikni qoplash me‘yori 195,2 foizni, sof barqaror moliyalashtirish me‘yori 112,2 foizni, lahzali likvidlilik me‘yori esa 105,1 foizni tashkil etgan”³. Ushbu ko‘rsatkichlar bank tizimida likvidlik zaxiralari mustahkamlanayotganini bildiradi. Shu bilan birga, raqamli to‘lovlar hajmining ortishi, mijozlar talabining tezkorlashuvi va moliyaviy oqimlarning real vaqt rejimiga o‘tishi banklarda likvidlik monitoringi va stress-test amaliyotini yanada kuchaytirishni talab

³ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining likvidlilik ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ma’lumotlari, 2021–2025-yillar.

qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar tarkibi ham kengayib bormoqda. An'anaviy sharoitda bank to'lov qobiliyati, asosan, kapital yetarliligi, likvid aktivlar hajmi, depozit bazasi va kredit portfeli sifati bilan baholangan bo'lsa, hozirgi bosqichda raqamli to'lov infratuzilmasi, masofaviy bank xizmatlari, real vaqt rejimidagi monitoring, kibexavfsizlik, mijozlarning raqamli faolligi va moliyaviy oqimlarni prognozlash tizimlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli banklarda likvidlikni boshqarish, to'lovlarni ustuvorlashtirish, yuqori likvidli aktivlar portfelini optimallashtirish va raqamli risklarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida bank tizimini isloh qilish va raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, "“O'zbekiston – 2030” strategiyasida bank tizimida xususiy sektor ulushini oshirish, banklarga strategik xorijiy investorlarni jalb qilish, moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirish va bank tizimining iqtisodiy o'sishga xizmat qilish imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari belgilangan”⁴. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishi tijorat banklarining to'lov qobiliyatini ta'minlash amaliyotini zamonaviy raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirishni talab etadi.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari to'lov qobiliyatini ta'minlash masalasi nafaqat banklarning ichki moliyaviy barqarorligi, balki butun milliy iqtisodiyotning uzluksiz moliyaviy harakati, to'lovlar tizimining ishonchliligi va mijozlar manfaatlarini himoya qilish bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois tijorat banklarida to'lov qobiliyatini baholashning zamonaviy indikatorlarini joriy etish, yuqori likvidli aktivlarni samarali boshqarish, stress-test amaliyotini kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalar asosida likvidlik monitoringini yo'lga qo'yish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Covi G., Škrinjarić T. *Measuring the stability of the banking system: capital and liquidity at risk with solvency-liquidity interactions*. Staff Working Paper No. 1,140. Bank of England, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-son “2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy statistik ma'lumotlari. 2021–2025-yillar.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.